

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ

РОМАН GERMAN ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

ФРАНЦУЗ ТИЛИ НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ КАФЕДРАСИ

**“РОМАН ВА GERMAN ТИЛШУНОСЛИГИНИНГ
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”**

**МАВЗУСИДА РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАТЕРИАЛЛАРИ
ТЎПЛАМИ**

4 ИЮЛЬ 2020 ЙИЛ

ТОШКЕНТ – 2020

gib' achtauf den Jahrgang..../Рейн мусалласини ичаётганингда унинг ишлаб чиқарилиш йилига эътибор бер; киздан бўса олаётганингда унинг туғилган йилига эътибор бер.

- **Wasbringen uns die Reben?...**
Vom Rheinden Wein./ Ток новдалари бизга нима келтиради? **Рейндан** мусаллас!

- Ҳарбий соҳа билан қуйидаги ифода алоқадор: **abnach Kassel!** /деярли: *Касселга жўна! Бор, йўқол!* (XVIII асрнинг иккинчи ярмида Кассельшаҳри мажбуран жангларга олиб кетилган ҳарбий хизматга чақирилувчиларнинг тўпланиш жойига айланган); **Begegnung (Treffen) ander Elbe**/Эльбада учрашув (1945 йилнинг апрель ойида Торгау шаҳри ёнида Совет ва Америка қўшинлари учрашди).

- Машҳур немис шаҳри Кельн қуйидаги бирикмада қўлланилади **Auf dieses Messerkannmannach Kölnreiten**/деярли: *бу пичоқни миниб, Кельнга етиб олиш мумкин, яъни пичоқ шу қадар ўтмаски, у билан бирор нарсани кесиб бўлмайди.*

Эмперик материаллар таҳлили шуни кўрсатадики, халқ донолиги, вино (мусаллас) ишлаб чиқариш, ҳарбий иш билан шуғулланиш, она табиатга меҳр-муҳаббат барқарор бирикмаларда ифодаланади ва оламни немислар тасаввур қилганидек тасвирлайди. Лексиканинг алоҳида қатлами сифатида ажратилган фразеология халқнинг ўзига хослигини, менталитетини, маданиятини, тарихини ва ҳаёт тарзини акс эттиради, шунингдек тил соҳиблари онгидаги оламнинг лисоний манзарасини очиқ беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Арсентьева Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте (на материале русского и английского языков). - Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2006. - 172 с.
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Монография. - М.: Индрик, 2005. - 1040 с.
3. Schmidt W. Deutsche Sprachkunde. - Berlin: Volk und Wissen Volkseigener Verlag, 1972. - 356 S.

VIRTUAL MULOQOT JANRLARINING TASNIFI

Mustafayev S.B.

SamDCHTI magistranti

Ilm-fanning rivojlanishi har sohada kun sayin yangidan yangi izlanishlar olib borishni taqazo etmoqda. Kommunikatsiya teoriyasi konteksida hozirda kommunikatsiyaning yangi turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar muhimligicha qolmoqda. "Kommunikatsiya" atamasi ilmiy adabiyotda XX asr boshida paydo bo'ldi va ilmiy ma'nosidan tashqari (har qanday obyektlarning

aloqa vositasi) juda tez sotsiomadaniy ma'noga ega bo'la boshlaydi.

Kommunikatsiya muammolari lingvistik, psixologik va falsafiy tomondan ilmiy ishlarda o'rganilib chiqilgan. Psixologiyada kommunikatsiya muloqotning tarkibiy qismlaridan biri deb qaraladi: "...muloqot umuman olganda kommunikatsiya tomonidan tugatila olmaydi, lekin u ham, o'z navbatida,

faqat informatsion jarayonga qaratila olmaydi” [1].

“Kommunikatsiya” va “muloqot” tushunchalarining noo’xshashligi falsafada ham keltirilib o’tiladi. Falsafiy nuqtai nazardan ular ba’zi munosabatda farqlanadi. Ulardan biri shundan iboratki, muloqot ham amaliy (material), ham ma’naviy (informatsion), ham amaliy-ma’naviy xususiyatga ega. Kommunikatsiya esa faqat informatsion jarayon hisoblanadi (ma’lumot yetkazish).

Tilshunoslik ilmi tizimida diskurs fenomeniga qiziqish juda ham kuchli. Ko’plab olimlar ilmiy ishlarida diskursga bag’ishlangan ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo’llangan bo’lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa og’zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan [2]. Maqolada Gasparova B.M., Karasik V.I. ishlariga to’xtalib o’tamiz. Ular o’z ishlarida diskurs va matn, diskurs va dialog, diskurs va nutq nisbatlariga katta e’tibor berganlar, ularning asosiy belgilarini tahlil qilganlar. “Diskurs” terminining asl ma’nosi “nutq”, “so’zlash” bo’lib, adabiyotlarda bu terminning “matn”ga sinonim sifatida qo’llaniladi.

So’nggi vaqtlarda ko’plab tadqiqotlar maqsadi internet-diskurs yoki virtual muloqot bo’lib qolmoqda. Uning bu sohada yangiligi va to’liq tadqiq etilmaganligi mavjud muammolarga turli xil yo’llar orqali yechim berish istaklarini oshirmoqda. O’rganilayotgan obyektning ikki taraflamaligi nominatsiya darajasida aks etadi. Ko’plab mualliflarni keyinchalik nafaqat “kommunikatsiya”, “muloqot” va “diskurs” ta’riflari dovdiratib qo’yardi, balki ko’pchilik uchun ushbu atamalar ma’no jihatdan bir-biriga yaqindek tuyulardi. Shunday qilib, ko’plab tadqiqotchilar bir obyekt uchun turli xil nomlarni ishlatishmoqda. “Virtual kommunikatsiya” tushunchasi informatsion texnologiyalar yordamida yaratilgan va real hayotdan uzoq, mavjud

bo’lmagan dunyoga g’arq qiladigan xayoliylikni chaqiruvchi sun’iy muhit mohiyati orqali yo’q bo’lolmaydi. Kommunikatsiyaning yangi turi – virtual muloqotning paydo bo’lishi alohida kommunikatsion makonning shakllanishini haqida gapirishimizga imkoniyat beradi. Kommunikativ makon o’z ichiga turli xil kommunikativ sohalarni qamrab oladi, masalan: siyosiy, tibbiy, pedagogik, ilmiy va h.k. Diskurs tipi kommunikatsiya ishtirokchilari, shuningdek kommunikativ maqsadlar, u faoliyat yuritayotgan kommunikativ muhit orqali aniqlanadi.

Inson faoliyatiga internet va kompyuter texnologiyalarining tobora kirib borishi tadqiqotchilar tomonidan murakkab tuzilishga ega va alohida elektron kommunikativ jabhada ishlovchi virtual diskurs yoki virtual muloqot ustida izlanishlar olib borilishi kerakligini bildiradi. E.N. Galichkina, D.V. Galkin, L.Y. Ivanov va boshqalar virtual diskursning mavjudligi va o’ziga xos xususiyatlari masalalari ustida chuqur izlanishlar va muhokamalar qilishgan [3].

N.G. Asmus o’z ilmiy ishlarida «virtual diskurs», «internet-kommunikatsiya», «elektron kommunikatsiya», «virtual muloqot» va «kompyuter diskursi» so’zlarini sinonim sifatida qo’llaydi va ularni u «subyektlarning kompyuter orqali amalga oshadigan kommunikativ o’zaro munosabati» deb hisoblaydi [4]. A.G. Abramova esa internet-diskursni «elektron diskurs» deb nomlaydi va uni faqat «internet saytlardagi og’zaki muloqot» deya izohlaydi [5]. D. Galkinning fikricha “virtual diskurs go’yoki kommunikatsiya tabiatini o’zgartirib qo’ydi – harflar va so’zlar, tovushlar va obrazlar raqamlar bilan almashgan, shuning uchun ham ular virtual ...” [6]. Yana bir muallif – K.V. Ovcharova o’z ishlarida ko’plab terminlarni tushunchaning sinonimi sifatida qo’llaydi. Misol uchun: «kompyuter diskurs», «elektron diskurs», «internet-diskurs» [7]. Mening nazarimda, kompyuter muloqoti, ya’ni “virtual kommunikatsiya” yangi va muloqotning boshqa

turlariga xos bo'lmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan kommunikativ muhitning shakllanishiga asos bo'ldi.

O'rganilayotgan obyektning muhim (konstitutiv) belgilarini yodga olishda mualliflarning qarama-qarshiliklari kuchaya boshlaydi. Virtual muloqotning boshqalardan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlari deb N.G. Asmus ishlaridan kelib chiqib quyidagilarni ayta olamiz [4]:

- dialoglilik;
- o'ziga xos muallif xarakteri;
- muallif-o'quvchi kategoriyasining birga olib borilishi;
- vaqt va makon bo'yicha chegaralanishlarning yo'qligi;
- a'zolar mavqesi bir xil bo'lishi kerak;
- dunyoning umumiy suratining shakllanishi;
- til vositalarining cheklanmagan tanlovi.

Muloqotning yangi turining — virtual kommunikatsiya — paydo bo'lishi bilan janrlashtirish maslasi aktual bo'lib qoldi: bir qancha o'ziga xos farqli belgilarga ega va faqatgina kompyuter kommunikatsiyalari uchungina xos janrlar hisoblanuvchi azaliy tarmoq janrlar va muloqotning boshqa doiralardan o'zlashgan janrlar paydo bo'ldi. N.G. Asmusning fikriga ko'ra, internet-kommunikatsiyaning olti xil janrini belgilash mumkin: domashnaya stranitsa (homepage), elektron pochta, forum, elektron doska, chat, ko'ngilochar loyihalar.

F.O. Smirnov o'z ishlarida internet-diskurs janrlarini interaktivlikning darajasiga ko'ra 3 guruhga ajratadi [8], ya'ni:

1. Yuqori interaktivlik darajasiga ko'ra: chat; ICQ (hozirgi Telegram, Whatsapp kabi messenger)
2. O'rta interaktivlik darajasiga ko'ra: forumlar; konferensiyalar; bloglar
3. Quyi interaktivlik darajasiga ko'ra:

elektron pochta

L.Y. Ivanov internet-diskursni tematik prinsipga asosan sinflashtiradi va ushbu janrlarga ajratadi: yangiliklar janri (yangiliklar sayti, PR-saytlar); ilmiy-ta'limiy va maxsus informatsion janrlar (monografiyalar, onlayn-konferensiyalar, elektron lug'atlar va b.); adabiy-badiiy janrlar (elektron kutubxonalar, annotatsiyalar va b.); nomutaxassis, umumiy muloqotga tegishli janrlar (virtual o'yinlar, pochta yozishmalari, chat va b.); ish va tijorat janrlari (e'lonlar, bannerlar, korporativ saytlar va b.) [9].

L.G. Antonova va Y.S. Julenova yuqoridagi sinflashtirishda keltirilgan tijorat va ishga oid janrlarni rad etadilar. Ular hozirda mashxur bo'lgan "elektron janrlar"ni birlashtirishni taklif etishdi: web-sayt, elektron kutubxona, elektron jurnal, elektron xat, chat, e'lonlar taxtasi, dasturlar kolleksiyasi, internet-ataloglar, tijoriy e'lonlar, reklama bannerlari. L.A. Kapadze ikki katta guruhni taklif etdi: yozma matnlarga yaqin bo'lgan janrlar va yozma hamda og'zaki matnlar gibridi hisoblangan janrlar, masalan, chat [10].

Ingliz tilshunosi D. Kristall internet-diskursni beshta janrga ajratadi: elektron pochta, sinxron va asinxron chatlar, virtual olamlar, veb-matnlar [11]. Ko'plab tadqiqotchilar internet-diskursni interaktivlik darajasiga ko'ra, boshqacha aytganda suhbatdoshning xabarlariga qilgan *reaksiya tezligiga* ko'ra janrlarga bo'lishadi [12]. Ularga quyidagilar kiradi:

chat; ICQ; forum va konferensiyalar; bloglar; elektron pochta.

Internet diskursiv maydon sifatida faqatgina sotsial-yo'naltirilgan va informatsion makon sifatida emas, balki elektron kommunikatsiyalarning o'g'zaki-yozma ko'rinishlari orqali lingvomadaniy va sotsial-muhim qiymatlarini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos diskursiv maydon deb ko'rilishi mumkin.

Internet-diskursning funksiyalari va maqsadlariga mos keluvchi barcha jabhalarni quyidagi janrlarga bo'lib chiqish mumkin:

Informatsion: web-sayt; elektron hujjat; wiki-loyiha; qidiruv tizimi.

Foydalanuvchida mavjud informatsion janr turli mavzudagi ma'lumot olish texnologiyalari va strategiyalarini shakllantiradi (ko'ngilochar, bilim orttirishga xizmat qiladigan va h.k.).

Kommunikativ: elektron xat; messenjerlar; ijtimoiy tarmoq.

Rivojlantiruvchi: o'yinlar olami va onlayn o'yinlar.

Bu janrning o'ziga xosligi shundan iboratki, bunda birinchi planga uning, foydalanuvchilari o'rtasida nutqiy aloqasiz amalga oshishi mumkin bo'lgan, rivojlantiruvchi funksiyasi chiqadi.

Servis: internet-do'kon; to'lov xizmatlari.

Ushbu janr u yoki bu xizmatdan foydalanishda ishlatilishi kerak bo'lgan nutqiy

operatsiyalarning o'rniga texnologik usullarni qo'llaydi.

Xulosa qilib aytganda, komyuter texnologiyasining jadal rivojlanishi yangi kommunikatsiya turi hisoblanadigan virtual muloqot yoki internet-diskurs turini paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. XX asrning 80-yillaridan boshlab tilshunoslar tomonidan internet-diskursni keng tadqiq etish boshlandi. Ko'plab tadqiqotchilar internet-diskursni o'sha davr talabidan kelib chiqqan holda janrlarga bo'lishdi. Hozirgi kunda ham informatsion-texnologiyalar sohasida rivojlanish juda tezlik bilan amalga oshmoqda. Hozirda foydalanuvchi olimlar tomonidan yaratilgan sun'iy ong bilan ham muloqotda bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida virtual muloqot janrlarini qaytada ko'rib chiqish va bu borada keng tadqiqot ishlarini amalga oshirish masalasini kundalik ehtiyojga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Парыгин Б.Д. Анатомия общения: Учебное пособие. – СПб.: Из-во В.А. Михайлова, 1999. – 300 с.
2. Xegay V. O ponyatii diskurs // Filologiya masalalari, 2006, N 2 (11), 63-66-betlar.
3. Галичкина Е. Н. Специфика компьютерного дискурса на английском и русском языках (на материале жанра компьютерных конференций: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Астрахань: АГУ, 2001.
4. Асмус Н. Г. Лингвистические особенности виртуального коммуникативного пространства: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Челябинск: ЧелГУ, 2005.
5. Абрамова А. Г. Лингвистические особенности электронного общения: автореф. дис. ... канд. филол. наук. М.: МГУ им. М.В. Ломоносова, 2005.
6. Галкин Д. Виртуальный дискурс в культуре постмодерна // Критика и семиотика. 2000. № 1. С. 173–191.
7. Овчарова К. В. Компьютерные чаты в Интернет-коммуникации: содержание и особенности функционирования: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Краснодар: КубГУ, 2008.
8. Смирнов Ф. О. Национально-культурные особенности электронной коммуникации на английском и русском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ярославль: ЯГПУ имени К. Д. Ушинского, 2004.
9. Иванов, Л. Ю. Язык в электронных средствах коммуникации // Культура русской речи. М.: Флинта : Наука, 2003. С. 791–793.

Даниёрова Б. М. Эменинг «la patte du chat» (мушук панжаси) номли эртаги таржимасининг қиёсий таҳлили (Француз ва ўзбек тили мисолида).....	230
Илёсов И., Рахимов Х.Р. Эрта таржимасида метафоранинг қайта яратилиши...	234
Kurbonova O. Tarjimaning lingkulturologik muammolari.....	239
Тожимуратова М. Фразеологизмы как элемент разговорной речи и особенности их перевода.....	241
Рахимов Х.Р. Таржима ҳам нутқ фаолияти тури ҳисобланади.....	244
Аноркулов С. Топоним компонентли немисча фразеологизмлар.....	247
Mustafayev S.B. Virtual muloqot janrlarining tasnifi.....	249
Джусупов Н.М. К вопросу о корреляции терминов «девиация» и «аномалия» лингвистических исследованиях (стилистический аспект).....	253
Эркинова Л. Способы выражения категории извинения в современном английском языке.....	255
Соляхова Л.Р. Особенности обучения иностранному языку в академии ВС РУ...	259
Курганова Р.Н. Анализ урока – деятельность, полезная для становления учительского мастерства	261
Исматова Ш., Рўзибоева Н.Қ. Адекватлик ва эквивалентлик - таржима назариясининг асосий тушунчалари.....	263
Хакимов Х.И. Способы выражения категории модальности побуждения в современном английском языке.....	265
Имяминова Ш. Бадиий таржимада фразеологизмлар.....	268
Имяминова Ш., Давронов Ж. Нибелунглар қўшиғи – немис халқи тарихидан ёдномалар.....	271
Yozilova F.N., Djumabayeva J.Sh. Bilinguals are more proficient language learners..	274
Нишонов П.П. Понятие концепта «труд» во французском и русском языках.....	276
Bobokalonov O. Fransuz zamonaviy frazeologiyasida lingvokulturologik shifobaxsh fitononimlar.....	280
Жўраева М.М. Эртаклардаги миллий-маданий ўхшашлик ва фарқли жиҳатлар (француз ва ўзбек эртаклари мисолида)	283
Н.Б.Кулдашова. Спорт терминларининг шаклланиши ва маданий-тарихий ривожланиши ҳақида.....	288
Хазратова З.М. Инглиз тили ўқитиш жараёнида оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш.....	290
Nazarov V.Sh. L'utilisation effective du document video dans l'enseignement des langues etrangeres.....	293
Нишонов П.П., Шодмонова Ф.И. Жан де лафонтен масалларининг лингвистик ва бадиий хусусиятлари	295
Ахмедова А.К. “Эроусмит” романида аёллар образи	299
Мусахонов Х.М. Инглиз ва ўзбек тили нуткий маданиятига хос мулоқот шакллари..	301
Отакулов Н. Б. Мезуратив фразеологизм тушунчаси.....	304
Базарова Ш.А. Педагогик методлар ва уларнинг тарбиявий жараёндаги роли..	308
Акромов У.Ш., Шодмонова Ф. И. Le secret d'un recit de jmg le Clezio.....	310
Исмоилова Д., Акромова Ф.Н. “Petit louis” романида лисоний тасвир воситаларининг қўлланиши.....	312
Ogay M. The formation of young learners' foreign language speaking skills.....	315
Kurbonova O. Tarjimaning lingvokulturologik muammolari.....	317
Рузматова Д. Р. Бадиийлик эстетик категория сифатида.....	320
Қосимова Х.О., Хошимов Ғ.М. Турли тизимдаги тилларда кириш бўлақлар ва уларни ифодаловчи синтактик воситалар.....	323
Khakimova S., Tukhtakhodjeva Z.T. Symbols in modern linguistics.....	327